

**BO‘AJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING
DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR
ETUVCHI OMILLAR**

*Abdullayeva Nasibaxon Jo‘rayevna
p.f.d., professor.
Kalandarova Fazilat Toxirovna.
University of business and science
nodavlat oliy ta‘lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin misli ko‘rilmagan ulkan ishlar, islohotlar boshlanib ketdi. Ular orasida eng asosiy vazifalardan biri uzluksiz ta‘lim tizimining yuzaga kelishi va unda tub o‘zgarishlarni amalga oshirilishi bo‘ldi. Ushbu maqolada bo‘ajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining deontologik kompetentligini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy sifatlar, deontologik kompetentlik, pedagogic-psixologik aspect, kasbiy muhit.

Аннотация: После обретения нашей страной независимости начались небывалые великие работы и реформы. Среди них одной из важнейших задач стало создание системы непрерывного образования и реализация в ней принципиальных изменений. В данной статье представлена информация о факторах, влияющих на развитие деонтологической компетентности будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: Знания, умения, квалификация, профессиональные качества, деонтологическая компетентность, педагогико-психологический аспект, профессиональная среда.

Abstract: After our country gained independence, unprecedented great works and reforms began. Among them, one of the most important tasks was the creation of a continuous education system and the implementation of fundamental changes in it. This article presents information about the factors affecting the development of deontological competence of future primary education teachers.

Key words: Knowledge, skill, qualification, professional qualities, deontological competence, pedagogical-psychological aspect, professional environment.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bola bilan har tomonlama ishlay olishi, boladagi barcha o‘zgarishlarni psixolog nuqtai nazaridan baholay olishi va bola psixologiyasidan kelib chiqib dars mashg‘ulotlarini tashkil etish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta‘kidlaganlaridek: “Umumiy o‘rta ta‘lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim. Hozirgi kunda faqat o‘qituvchi mehnati va mahoratiga asoslanib tashkil etilgan ta‘lim yaxshi samara bermasligi hech kimga sir emas”. Endi o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko‘maklashishdan iborat. Buning uchun o‘quvchilarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch –g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur. Yurtboshimiz

Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Haqiqatdan ham hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan bo‘lib qolmoqda. Buning uchun, avvalo, boshlang‘ich sinflarda o‘z o‘qituvchilari kuchli pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari shart. Bugungi globallashtirish va axborot asrida uzluksiz ta’limning har bir bosqichida mamlakat taqdiri har jihatdan mukammal bilim va dunyoqarashga ega, raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlash ishiga dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining deontologik kompetentliklarini samarali shakllantirish uchun zamonaviy sharoitlarda mazkur jarayonga ko‘proq ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari deontologik kompetentliklarining shakllanishini tahminlovchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashda ularni inobatga olish zarurdir. Entsiklopedik lug‘atda omil “biror-bir jarayon rivojiga ta’sir etuvchi sabab, harakatlantiruvchi kuch” sifatida ta’riflanadi. O‘tkazilgan tahlillar psixologik-pedagogik tadqiqotlarda omillarga ko‘proq quyidagilar kiritilishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini beradi: • ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, insonning faoliyati kechadigan muhit; • mazkur faoliyat turining ahamiyati va zarurati to‘g‘risida sotsiologik fikri; • kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan insonning biror-bir sifatlarining shakllanishi jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi uning psixologik xususiyatlari. Tadqiqotlar jarayonida oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining deontologik kompetentligini shakllantirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi ikki guruh omillar aniqlandi: – ijtimoiy-pedagogik omillar (zamonaviy ijtimoiy sharoitlar bilan tavsiflanadi – ijtimoiy aspekt, oliy ta’lim muassasasida tarbiyaviy-ta’limiy jarayonni tashkil etish - pedagogik aspekt); – psixologik-pedagogik omillar (bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining sub’ektiv xususiyatlari va shaxsining kasbiy muhim sifatleri bilan tavsiflanadi - psixologik aspekt, uning bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan - pedagogik aspekt).

A. Ye. Dmitriev va M. R. Levov ta’kidlashlaricha, maktabning dastlabki, boshlang‘ich bosqichi bola shaxsini, uning qobiliyatlarini rivojlantiradi, uni muloqotga, ona tiliga, o‘qishga, axloqiy, estetik, jismoniy madaniyat asoslarini o‘rgatadi, tizimli mehnat odatini shakllantiradi. Bolalar tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlarni, dunyoqarash asoslarini egallaydilar. Boshlang‘ich maktabda ta’lim oluvchilar o‘qish, yozishning zarur ko‘nikma va malakalarini egallaydilar, atrofdagi olamni kuzatish, o‘chash va hisoblashga o‘rganadilar, mantiqiy eslab qolish usullarini, nazariy tafakkur elementlarini, nutq va xulq madaniyati, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini egallaydilar. Bolalarda dastlabki qadriyatli yo‘nalishlar yuzaga keladi, o‘qish motivi shakllanadi, bilimlar, ma’naviy qadriyatlarga mehr singdiriladi. Har bir o‘qituvchi mazkur sharoitlarda ishlash, bunday vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo‘lishi kerak. U shuningdek, zamonaviy bolani, uning ehtiyojlari, qiziqishlarini bilishi, bolalarni va ularning rivojlanish shartsharoitlarini o‘rganishning zamonaviy metodlarini egallagan bo‘lishi kerak

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari deontologik kompetentligining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar guruhidagi ijtimoiy aspekt quyidagi omillarni belgilaydi: – zamonaviy jamiyatda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining mavqei (jamiyat tomonidan har bir inson hayotida ta’limning boshlang‘ich bosqichining ahamiyatining tushunilishi, pedagogga “birinchi ustoz” ijtimoiy

rolini belgilash); –jamiyat tomonidan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi kasbiga talablar qo‘yilishi; –kasbiy va shaxsiy o‘shish imkoniyatlari (pedagogik faoliyatda kasbiy o‘shish, pedagogik faoliyatda professionallikka va uning oliy bosqichi – pedagogik mahoratga erishish). Zamonaviy sharoitlarda kasbiy ta’limda «rivojlantiruvchi ta’lim muhiti» fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Britaniyalik psixolog Dj. Raven, zamonaviy jamiyatda kompetentlik muammosini o‘rganib, kompetentlik va xulq, kompetentlik va qobiliyatlar, kompetentlik va rivojlantiruvchi muhit, kompetentlik va qadriyatlarining o‘zaro aloqadorligiga e’tibor qaratadi. Muallif kompetentlikni shakllantirish uchun muhit katta ahamiyatga ega deb hisoblaydi. S.I.Ojegov lug‘atida muhit quyidagicha talqin etiladi: –makonni to‘diruvchi modda, shuningdek nimanidir o‘rab turuvchi jismlar; –insoniyat jamiyati, tashkilotlar faoliyati kechadigan atrof, tabiiy sharoitlar yig‘indisi; Rus tili akademik lug‘atida esa muhit quyidagicha talqin etiladi: –muayyan organizmning hayot faoliyati kechadigan tabiiy va ijtimoiy sharoitlar yig‘indisi; –inson hayoti kechadigan ijtimoiy-maishiy shart-sharoit;

Ta’riflar tahlili ko‘rsatishicha, “muhit” tushunchasi inson hayot faoliyati kechadigan makon, atrof, sharoitlar toifalari orqali ochib beriladi. Demak, mohiyatan, inson hayot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. V. A. Levinning tadqiqotlarida ta’lim muhiti deganda belgilangan namuna bo‘yicha shaxsning shakllanishiga ta’sirlar va sharoitlar tizimi, shuningdek uni rivojlantirish uchun ijtimoiy va fazoviy-predmetli atrofda mavjud bo‘gan imkoniyatlar tushuniladi³. Yuqoridagi ta’rifdan ko‘rinib turganidek, oliy ta’lim muassasasida ta’lim muhiti – bu bo‘lajak mutaxassislarning deontologik kompetentligining shakllanishiga ta’sir etuvchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismidir.

Xulosa qilib aytganda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining deontologik kompetentligini shakllantirishga psixologik-pedagogik omillarning ta’siri ko‘p jihatdan shaxsning o‘zi, insonning o‘ziga talablari tizimiga bog‘liq hisoblanadi. Bu o‘z kasbini tanlashdan qoniqish, zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi to‘g‘risidagi tasavvurlar va mazkur tasavvurlarga mos bo‘lishga intilish, motivatsiyalarda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. U.Yakibova. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi. TDPU ilmiy axborotlari. 2023, №3.
3. N.Ruzikoluva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Diss.ishi.-Toshkent: TDPU, 2020.
4. O.Qo‘ysinov. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Diss.ishi.- Toshkent: TDPU, 2019.
5. J.Usarov. Tayanch va fanga oid kompetentsiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish. Diss.ishi.-Toshkent: TDPU, 2019.
6. Энциклопедический словарь .1.- М.: Советская эциклопедия, 1981.- 1600с.
7. Концепция подготовки учителя начальных классов (в педагогических институтах и училищах).2. Сост. А.Е.Дмитриев, М.Р.Львов // Начальная школа. - 1990. - №7. — С.64-69. 152